O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK: 339.9(4-672EU)

Nilufar R.RAHMATOVA
Talaba, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: nilufarrahmatova1906@gmail.com, 0009-0002-0790-5219

FarDTU dotsenti, I.Tishabayeva taqrizi asosida

YEVROPA ITTIFOQINING JAHON IQTISODIYOTIDAGI O‘RNI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Yevropa Ittifoqining jahon iqtisodiyotidagi o‘rni va ta’siri makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, tashqi savdo, yagona valyuta (yevro), to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, transmilliy kompaniyalar faoliyati hamda barqaror rivojlanish siyosati misolida kompleks tahlil qilinadi. Jahon banki, Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi, JST, Eurostat va UNCTAD ma’lumotlari asosida Yevropa Ittifoqining global YaIMdagi ulushi, savdo aylanmasi va asosiy savdo hamkorlari dinamikasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Yevropa Ittifoqi, jahon iqtisodiyoti, YaIM, tashqi savdo, yevro, Bryussel effekti, Rotterdam effekti, transmilliy kompaniyalar, Global Gateway, Yashil Kelishuv, CBAM, barqaror rivojlanish.

РОЛЬ ЕВРОПЕЙСКОГО СОЮЗА В МИРОВОЙ ЭКОНОМИКЕ

Аннотация

В данной статье проводится комплексный анализ роли и влияния Европейского союза в мировой экономике на основе макроэкономических показателей, внешней торговли, единой валюты (евро), прямых иностранных инвестиций, деятельности транснациональных корпораций и политики устойчивого развития. На основе данных Всемирного банка, Международного валютного фонда (МВФ), Всемирной торговой организации (ВТО), Eurostat и Конференции ООН по торговле и развитию (ЮНКТАД) рассматриваются доля Европейского союза в мировом валовом внутреннем продукте (ВВП), динамика внешнеторгового оборота и структура его основных торговых партнёров.

Ключевые слова: Европейский союз, мировая экономика, валовой внутренний продукт (ВВП), внешняя торговля, евро, Брюссельский эффект, Роттердамский эффект, транснациональные корпорации, Global Gateway, Европейский зелёный курс, CBAM, устойчивое развитие.

THE ROLE OF THE EUROPEAN UNION IN THE GLOBAL ECONOMY

Annotation

This article provides a comprehensive analysis of the role and influence of the European Union in the global economy, focusing on macroeconomic indicators, foreign trade, the single currency (euro), foreign direct investment, the activities of multinational corporations, and sustainable development policies. Drawing on data from the World Bank, the International Monetary Fund (IMF), the World Trade Organization (WTO), Eurostat, and the United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD), the study examines the European Union's share of global gross domestic product (GDP), trends in foreign trade turnover, and the composition of its major trading partners.


Keywords: European Union, global economy, gross domestic product (GDP), foreign trade, euro, Brussels Effect, Rotterdam Effect, multinational corporations, Global Gateway, European Green Deal, Carbon Border Adjustment Mechanism (CBAM), sustainable development.

Kirish. Yevropa Ittifoqi bugungi kunda jahon iqtisodiyotining eng yirik va eng integratsiyalashgan mintaqaviy birlashmalaridan biri hisoblanadi. U yagona ichki bozor, erkin savdo, kapital va mehnat resurslarining harakati hamda yagona valyuta hisoblangan yevro orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirishga erishgan. Yevropa Ittifoqi global yalpi ichki mahsulotning salmoqli qismini shakllantirib, xalqaro savdo va investitsiyalar oqimida yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Ittifoq nafaqat ishlab chiqarish va savdo hajmi, balki huquqiy, ekologik va texnologik standartlarni belgilash orqali ham jahon iqtisodiy jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, Yevropa Ittifoqining barqaror rivojlanish, raqamli transformatsiya va “Yashil Kelishuv” siyosati global iqtisodiy modelning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Yevropa Ittifoqining global iqtisodiy ko‘rsatkichlardagi o‘rni. Yevropa Ittifoqining jahon iqtisodiyotidagi real o‘rni eng avvalo uning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarida namoyon bo‘ladi. Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi (IMF) ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda Yevropa Ittifoqining umumiy yalpi ichki mahsuloti (YaIM) 19.99 trillion AQSh dollaridan oshib, uni AQShdan keyingi ikkinchi yirik iqtisodiy makonga aylantirdi. Bu ko‘rsatkich jahon YaIMining taxminan 18.29 foizini tashkil etadi.


Hudud	XVJ (2025)	JB (2024)	BMT (2023)
Butun Jahon	117,165,394	111,326,370	100,834,796
AQSh	30,615,743	29,184,890	27,720,700
Yevropa Ittifoqi	19,999,532	19,435,678	18,356,879
Xitoy	19,398,577	18,743,803	17,794,782

1.1-jadval. Mamlakatlar bo‘yicha YaIM bashorati va bahosi (million AQSh dollari)




Yevropa Ittifoqining tashqi savdo aylanmasi. Savdo hajmi nuqtai nazaridan Yevropa Ittifoqi dunyodagi eng yirik savdo bloklaridan biri hisoblanadi. Jahon Savdo Tashkiloti (WTO) ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi global tovar va xizmatlar savdosining qariyb uchdan bir qismida ishtirok etadi[1]. Germaniya Yevropa Ittifoqining tashqi savdo tizimida markaziy o‘rinni egallaydi va uning eng yirik savdo markazi hisoblanadi.

1-rasm



2-rasm


Eurostat ma’lumotlariga ko‘ra, Germaniyaga Yevropa Ittifoqi tarkibiga kirmaydigan davlatlarga bo‘lgan eksportining taxminan 27,4% to‘g‘ri keladi, shuningdek, uchinchi davlatlardan importning 18,6% Germaniyaga tegishlidir. Ushbu ko‘rsatkichlar Germaniyaning Yevropa. Germaniyadan keyin Yevropa Ittifoqining eng yirik eksportyorlarining qatorida Italiya (11,8%), Fransiya (10,6%) va Niderlandiya (10,2%) ajralib turadi. Ushbu mamlakatlar eksportining tuzilishi yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlardan tashkil topgan bo‘lib, ularga mashinasozlik, avtomobilsozlik, kimyo sanoati va sanoat uskunalari kiradi. Yevropa Ittifoqi importida yetakchi o‘rinlarni Niderlandiya (17,8%), Fransiya (10,4%) va Italiya (9,9%) egallaydi[2]. Shu bilan birga, Niderlandiyaning Yevropa Ittifoqi importidagi yuqori ulushi “Rotterdam effekt”i bilan izohlanadi. Bu Yevropaning eng yirik porti Rotterdam orqali keladigan tovarlarning katta qismi statistik jihatdan Niderlandiya importi sifatida hisoblanadi, garchi amalda bu tovarlar boshqa Yevropa Ittifoqi davlatlarida iste'mol qilish va qayta ishlashga mo‘ljallangan bo‘lsa ham. Shunday qilib, Yevropa Ittifoqining savdo statistikasi nafaqat haqiqiy iste’mol hajmlarini, balki ayrim davlatlarning logistika rolini ham aks ettiradi. Amaliy jihatdan bu holat Yevropa Ittifoqining nafaqat ishlab chiqaruvchi, balki global qiymat zanjirlarining (Global Value Chains) markaziy nuqtasi sifatida faoliyat yuritayotganini ko‘rsatadi. Masalan, Germaniyada ishlab chiqarilgan avtomobillarning ayrim qismlari Sharqiy Yevropa davlatlarida yig‘ilib, so‘ngra Osiyo va Amerika bozorlariga eksport qilinadi.



3-rasm. Yevropa Ittifoqi a’zo davlatlarining eksport va importdagi ulushi


Natijalar va Muhokama. Yevropa Ittifoqining asosiy savdo hamkorlari. 2024-yilda Yevropa Ittifoqining asosiy eksport hamkori AQSh bo‘lgan va unga eksportining 20,6% to‘g‘ri keladi. Buyuk Britaniya ikkinchi o‘rinni egallaydi (13,2%), Brexitdan keyin Yevropa Ittifoqi bilan yuqori darajadagi savdo o‘zaro bog‘liqligini saqlab qolgan, Xitoy esa 8,3% eksportni tashkil qilgan. Yevropa Ittifoqi importida Xitoy oldinda, eng yirik yetkazib beruvchi sifatida 20,1% ulush bilan AQSh (12,9%) ikkinchi o‘rinda qolgan[3]. 2023–2024 yillarda Yevropa Ittifoqidan eksport eng faol ravishda AQShga (+5,6%) va Yaponiya (+4,5%) yo‘nalishida oshgan bo‘lsa, Xitoyga (−4,6%) va Janubiy Koreyaga (−2,7%) import kamaygan. Import notekis dinamikani ko‘rsatgan: Norvegiyadan (−13,0%) va Yaponiyadan (−10,7%) sezilarli

pasayish kuzatilgan, Hindiston (+9,0%) va Braziliyadan (+3,2%) import ortgan. Umuman olganda, bu ko‘rsatkichlar Yevropa Ittifoqida savdo aloqalarini diversifikatsiya qilish va Ittifoqni jahon iqtisodiyotining o‘zgaruvchan sharoitiga moslashtirishni ko‘rsatadi.




4-rasm.Yevropa Ittifoqining 2023-2024 chi yillarda asosiy savdo hamkorlari

2023–2024 yillar davomida Yevropa Ittifoqining tovar eksportidagi tuzilma asosan barqaror bo‘lib qolgan (5-rasm). Shu bilan birga, kimyo mahsulotlari va unga bog‘liq tovarlarning ulushi 1,2 foizga kamaygan, mashinalar va transport vositalari ulushi esa 1,0 foizga oshgan. Ushbu o‘zgarishlar Yevropa Ittifoqi eksportining asta-sekin mashinasozlik va yuqori texnologiyali sohalar mahsulotlariga qaratilishini aks ettiradi. Shuningdek, 2023–2024 yillarda Yevropa Ittifoqi import tuzilmasida energiya resurslari ulushi 2,5 foiz birlikka oshgani qayd etilgan (6-rasm).



5-rasm. Yevropa Ittifoqi eksporti tarkibidagi eng asosiy mahsulotlar ulushi



6-rasm.Yevropa Ittifoqi importi tarkibidagi eng asosiy mahsulotlar ulushi

Yevro hududi va yagona valyutaning Jahonga ta’siri. Yevro (valyuta belgisi: €, bank kodi: EUR) — 20 ta «Yevrohududi» davlatining rasmiy valyutasi hisoblanadi[4]. Shuningdek, yevro Chernogoriya va Kosovoda va yana 4 ta davlatda foydalaniladi. Yevropa Ittifoqining jahon iqtisodiyotidagi amaliy rolini tahlil qilishda yevro valyutasining ahamiyati alohida o‘rin tutadi. Yevro bugungi kunda AQSh dollaridan keyin ikkinchi eng muhim xalqaro rezerv valyuta hisoblanadi. Yevropa Markaziy Banki (ECB) ma’lumotlariga ko‘ra, global valyuta rezervlarining qariyb 20 foizi yevroda saqlanadi, xalqaro to‘lovlarning esa 30 foizdan ortig‘i yevro orqali amalga oshiriladi[5].

Yevropa Ittifoqining global investitsiyalar va kompaniyalar darajasidagi ta’siri. Yevropa Ittifoqi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI) bo‘yicha ham jahon yetakchilaridan biridir. UNCTAD ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi dunyodagi eng yirik investitsiya manbai va eng yirik investitsiya qabul qiluvchi hududlardan biri hisoblanadi: Ishlab chiqarish 50% (ayniqsa avtomobilsozlik va kimyo sanoati); AKT va Raqamli iqtisodiyot 19%; moliyaviy xizmatlar 8%.[6] Masalan, Siemens, Volkswagen, Airbus, TotalEnergies, SAP va Nestlé kabi yevropalik transmilliy kompaniyalar global bozorlarda strategik ahamiyatga ega. Airbus kompaniyasini misol qilib olsak, u AQShning Boeing kompaniyasiga jiddiy raqobatchi sifatida global aviatsiya bozorida faoliyat yuritadi. Airbus ishlab chiqarish zanjiri bir nechta Yevropa davlatlariga taqsimlangan bo‘lib, bu integratsiyaning amaliy samaradorligini ko‘rsatadi.

Yevropa Ittifoqining investitsiyalari va TMKlarining jahon miqyosidagi ta’siri. Birinchidan, “Bryussel effekti” (The Brussels Effect). Yevropa Ittifoqi dunyodagi eng yirik va boy iste’mol bozoriga ega bo‘lgani sababli uning ichki bozor standartlari (masalan, GDPR ma’lumotlar himoyasi yoki ekologik normalar) avtomatik ravishda global standartga aylanadi[7]. Transmilliy korporatsiyalar ikki xil ishlab

chiqarish liniyasidan qochish uchun butun dunyo bo‘ylab Yevropa standartlariga moslashishga majbur.

Ikkinchidan, global investitsiya va infratuzilma donorligi. UNCTAD ma’lumotlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi dunyodagi eng yirik chiquvchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar manbai hisoblanadi[8]. “Global Gateway” (Global darvoza) strategiyasi orqali Yevropa Ittifoqi rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamli texnologiyalar, energetika va transport (masalan, O‘rta koridor loyihasi) sohalariga 300 milliard yevrogacha sarmoya kiritishni maqsad qilgan. Bu esa jahon iqtisodiy xaritasini diversifikatsiya qilishda asosiy omil bo‘lmoqda.

“Yashil Kelishuv” va barqaror rivojlanishning amaliy natijalari. Yevropa Ittifoqining so‘nggi yillardagi eng muhim iqtisodiy tashabbuslaridan biri bu “European Green Deal” siyosatidir. Ushbu dasturga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi 2050-yilga borib uglerod neytral hududga aylanishni maqsad qilgan. Amaliy jihatdan bu qayta tiklanuvchi energiya, elektromobillar, energiya samaradorligi va yashil texnologiyalarga milliardlab yevro investitsiya kiritilishini anglatadi.

2024-yil yakunlariga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi o'zining issiqxona gazlari emissiyasini 1990-yilga nisbatan 37% ga kamaytirishga erishdi, shu bilan birga Ittifoq iqtisodiyoti (YaIM) 71% ga o'sdi.[10] Bu “iqtisodiy o‘sishni emissiyalardan uzish” tamoyilining amaliy isbotidir. Masalan, Germaniya va Daniyada shamol energiyasi, Ispaniya va Italiyada quyosh energiyasi ulushi keskin oshgan. Bu jarayon qisqa muddatda xarajatlarni oshirsa-da, uzoq muddatda energiya mustaqilligi va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

“Yumshoq kuch” va Standartlar orqali global ta’sir. Taqdim etilgan ma’lumotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, Yevropa Ittifoqining dunyoga ta’siri miqdoriy (YaIM hajmi)dan o‘yin qoidalarini belgilash shakliga o‘zgarib bo'lgan. “Rotterdam effekti” misoli: Niderlandiyadagi statistika (17,8% import) Yevropa Ittifoqi birlashtirilgan tirik organizm sifatida ishlashini isbotlaydi. Rotterdam porti - bu tovarlar Germaniya va Fransiyaga kiradigan “eshik”. Bu dunyoning infratuzilmasi Yevropa Ittifoqi logistika tugunlariga qanchalik bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. “Yashil kelishuv” (Green Deal) misoli: YaIM 71% o‘sgan holda chiqindi gazlar 37% ga kamayishi ekologiya iqtisodiyotga zarar keltiradi degan tasavvurni inkor etadi. Yevropa Ittifoqi butun dunyo uchun “laboratoriya”ga aylangan, qayta tiklanadigan energiyaga o‘tish (Daniya yoki Ispaniya kabi) energiya mustaqilligiga olib boradigan yo‘l ekanini isbotlamoqda.

Global Gateway orqali diversifikatsiya: Yevropa Ittifoqini “Markaziy koridor”ga, ya’ni Markaziy Osiyo – Kavkaz – Yevropa yo‘lagiga aylantirish, texnika va ilmiy kashfiyotlarga tikiladigan investitsiyalarni kuchaytirishi kerak, bu logistika risklarini kamaytirish va yangi bozorlar bilan aloqalarni mustahkamlashga va AQSh, Xitoy kabi ilmga katta miqdorda investitsiya kiritayotgan davlatlar arenasida raqobatbardoshlikni oshirishga olib keladi. “Yashil soliq”ga (CBAM) moslashish: Hamkor davlatlar (masalan, O‘zbekiston yoki Turkiya) uchun texnik qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish lozim, shunda ularning eksporti (po‘lat, o‘g‘itlar) Yevropa Ittifoqining yangi standartlariga iqtisodiy zarar ko‘rmasdan mos kelishi mumkin. Qo‘shimcha qilib atganda, Fiskal siyosatni kuchaytirish, ya’ni yagona byudjet va transfer mexanizmlarini rivojlantirish kerak. Bu harakat Shimol-Janub tafovutini kamaytirish yechimiga olib kela oladi.

Xulosa. Yevropa Ittifoqining eng katta kuchi uning “Bryussel effekti”dadir. AQSh texnologiya yaratadi, Xitoy uni ishlab chiqaradi, Yevropa esa uning qanday bo'lishi kerakligini belgilaydi. Bu esa dunyoni boshqarishning eng aqlli va tez amalga oshadigan usuli. Yevropa Ittifoqining ichki bozori tartiblari, dunyoning qolgan qismi u yerga mahsulot sotish uchun ixtiyoriy ravishda o‘z standartlarini o'zgartirishga olib keladi. Mening xulosamga ko‘ra, Yevropa Ittifoqi hozirda ikki tomonlama holatda:

1)Yutug‘i bu Integratsiya mo‘jizasida: Bir-biri bilan asrlar davomida urushgan xalqlarni yagona valyuta va umumiy bozor ostida birlashtirish insoniyat tarixidagi eng katta muvaffaqiyatli iqtisodiy tajribadir.

2)Zaifligi esa texnologik qaramlikdir: Yevropa Ittifoqi yashil energetika va aviatsiyada kuchli bo‘lsa-da, Sun’iy Intellekt (AI) va Bulutli texnologiyalar bo‘yicha AQSh (Google, Microsoft) va Xitoydan sezilarli darajada ortda qolmoqda. Bu esa kelajakda Yevropani “raqamli koloniya”ga aylantirib qo‘yishi mumkin.

Yevropa Ittifoqi bu barqarorlik modelining yaqqol namunasidir. Agar dunyo ekologik halokatdan qutulishni reja qilsa, Yevropaning "Yashil Kelishuv" (Green Deal) modeliga o‘tishi kerak bo‘ladi. Biroq, agar Yevropa Ittifoqi raqamli inqilobdan o‘zini qutqarmasa, texnologiya va ilmga investitsiyalarni oshirmasa va ichki nizolarini bartaraf qila olmasa, u shunchaki boy va chiroyli muzey-hudud bo‘lib qolish xavfi ostida. Shuningdek, yuqorida sanab o‘tilgan muammolarga yechim topa olsa, Yevropa Ittifoqi integratsiyalashuv jarayoni yangi bosqichlarga ko‘tarilishi va Federativ bosbhqaruv tizimiga ham o‘tishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Jahon Savdo Tashkiloti (WTO). Olingan manba: wto.org.
2. Eurostat. “International trade in goods - extra-EU trade by Member State”. European Commission. Olingan manba: ec.europa.eu/eurostat
3. Eurostat. “Main goods trading partners of the European Union”. European Commission. Olingan manba: ec.europa.eu/eurostat
4. Yevropa Markaziy Banki. “Yevro hududi: a’zo davlatlar va valyuta siyosati”. Olingan manba: ecb.europa.eu
5. Yevropa Markaziy Banki. “Yevroning xalqaro roli bo‘yicha hisobot (iyun, 2024)”. Olingan manba: ecb.europa.eu
6. UNCTAD. “World Investment Report 2024: Investment and the Digital Economy”. Birlashgan Millatlar Tashkiloti. Olingan manba: unctad.org
7. Bradford, A. “The Brussels Effect: How the European Union Rules the World”. Oxford University Press, [2020]. Olingan manba: columbia.edu
8. UNCTAD. “World Investment Report 2024: Investment and the Digital Economy”. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, [2024]. Olingan manba: unctad.org
9. European Commission. “EU Climate Action Progress Report 2024”. European Union, [2024]. Olingan manba: climate.ec.europa.eu
10. European Commission. “Carbon Border Adjustment Mechanism: Questions and Answers”. European Union, [2024]. Olingan manba: taxation-customs.ec.europa.eu